


Qoraqalpog'iston Respublikasi

Statistika boshqarmasi



**2024-YIL
YANVAR-IYUN
OYLARIDA
ASOSIY
KAPITALGA
INVESTITSIYALAR**






2024-yilning yanvar-iyun oylarida 9456,1 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirilib, ularning 81,3 % i yoki 7681,4 mlrd. soʻmi jalb etilgan mablagʼlar hisobidan moliyalashtirilgan boʻlsa, korxona, tashkilot va aholining oʻz mablagʼlari hisobidan 18,7 % yoki 1774,7 mlrd. soʻm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023-yildagi ulushiga nisbatan 11,4 % punktga kamayib, 10,7 % ni yoki 1008,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 8447,4 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalarning 89,3 % investitsiyalari oʻzlashtirilib, 2023-yildagi koʻrsatkichga nisbatan 11,4 % punktga koʼpaydi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm




2024-yilning yanvar-iyun oylarida kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 5174,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 54,7 % ini tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1199,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 2,6 martaga oshib, 12,7 % i o'zlashtirildi. Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,8 % i yoki 1022,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mird. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	ulushi, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	9456,1	169,2	100,0
tumanlar:			
Amudaryo	288,8	140,0	3,1
Beruniy	165,7	81,4	1,8
Bo‘zatov	23,8	50,1	0,3
Qorao‘zak	3096,8	354,6	32,7
Kegeyli	54,0	82,5	0,6
Qo‘ng‘iroq	1575,4	269,4	16,7
Qonliko‘l	106,1	136,9	1,1
Mo‘ynoq	1176,4	180,5	12,4
Nukus	202,7	104,8	2,1
Taxiatosh	82,8	169,0	0,9
Taxtako‘pir	42,4	134,3	0,4
To‘rtko‘l	332,8	87,4	3,5
Xo‘jayli	188,3	109,2	2,0
Chimboy	171,7	125,2	1,8
Shumanay	63,6	106,4	0,7
Ellikqal‘a	217,6	60,7	2,3
Nukus sh.	1667,2	112,1	17,6

Shuningdek, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2023-yilga nisbatan 3,1 martaga oshdi. Bunday yuqori o‘sishni 2022-2027-yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o‘zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) bo‘yicha dastur, 2020-2030-yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini ko‘paytirish va boshqa investitsiya loyihalari bilan izohlash mumkin.

Qurilish-montaj ishlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlariiga 4783,6 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 50,6 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna, inventarlar bo'yicha 4196,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 44,4 %) va boshqa xarajatlarga 476,3 mlrd. so'm (5,0 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ellikqa'l'a tumanida kuzatildi – 76,3 % yoki 166,1 mlrd. so'm.


Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Taxtako'pir tumanida kuzatilib, 37,6 % ni yoki 15,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qorao'zak tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 58,6 % yoki 1814,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar 5928,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 62,7 % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami eng yuqori ko'rsatkich 2022-2027-yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o'zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Qorao'zak tumanida kuzatilib, u 98,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2575,4 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 27,2 % ini tashkil etdi. Qolgan 10,1 %, ya'ni 952,2 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Hudular bo'yicha yangi quruilish ishlariga ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish ishlariga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSIYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSIYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 4311,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 45,6 % i o'zlashtirilgan.

Tog'-kon sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


TOG'-KON SANOATI BILAN BOG'LIQ BOSHQA FAOLIYAT
16,1 mlrd. so'm
ulushi 0,2 %

METALL RUDALARINI QAZIB OLISH
2800,3 mlrd. so'm
ulushi 29,6 %

XOM NEFT VA TABIIY GAZ QAZIB OLISH
1494,7 mlrd. so'm
ulushi 15,8 %

Ishlab chiqarish sanoatida jami 1406,2 mlrd.so'm yoki respublika bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 14,9 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 7,9 % i yoki 749,7 mlrd. so'mi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sohasiga tegishlidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so‘m

	Jami	To‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6851,4	1199,8	476,7	5174,9
tumanlar:				
Amudaryo	166,4	-	57,0	109,4
Beruniy	55,5	-	-	55,5
Bo‘zatov	5,8	-	-	5,8
Qorao‘zak	3057,7	315,1	53,2	2689,4
Kegeyli	18,3	9,0	-	9,3
Qo‘ng‘iroq	1345,8	716,0	243,8	386,0
Qonliko‘l	53,6	6,1	-	47,5
Mo‘ynoq	994,6	-	-	994,6
Nukus	81,7	0,4	69,9	11,4
Taxiatosh	28,3	-	-	28,3
Taxtako‘pir	21,8	6,0	-	15,8
To‘rtko‘l	76,2	33,1	14,8	28,3
Xo‘jayli	25,7	8,2	-	17,5
Chimboy	74,0	7,2	-	66,8
Shumanay	18,1	8,8	-	9,3
Ellikqa‘la	71,0	-	-	71,0
Nukus sh.	756,9	89,9	38,0	629,0


2024-yil yanvar-iyun oylarida 6851,4 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 72,5 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 4452,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 2399,1 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 6374,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 476,7 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati 2,6 martaga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefonasi: (61) 222-75-91